

**YASHASH-BU YO`QOTISHLAR ICHIDA O`ZLIGINGNI SAQLAB
QOLISHDIR.**

Rahmonova Munojat

Zamonaviy Xitoy adabiyotining so`nmas vakillaridan biri-Yu Hua o`zining “Yashamoq” asarida inson hayoti, sabr-toqat, va yashash istagi haqida yoddan chiqmaydigan, yurakni larzaga soluvchi asarni dunyoga keltirdi. Asarning bosh qahramoni haqida gapirar ekanmiz. Bu asar qahramoni Fugui-taqdir zarbalariga to`qnash kelgan oddiy dehqon siymosidir. Ilgari boy-badavlat bo`lgan bu yigit, qimor beparvolik, ma`sulyatsizligi tufayli hamma narsada ayriladi. U hali uni hayot sinovlari kutib turganini his qilmas edi. U tufayli oilasining kambag`al bo`lib qolishi, urush, ochlik farzandlarining ketma-ket yo`qotilishi.... Va shunga qaramay, hayotni davom ettiradi. Bu asar orqali insoning irodasi, sabr-toqati, chidamliligi nomoyon bo`ladi. Bu asardagi Fugui oilasining a`zolari bilan bo`lgan munosobatlari orqali oilaviy qadriyatlar va insoniy fazilatlar muhim ekanligi ko`rsatib o`tilgan. Biz bu asar orqali faqat Fuguini emas, uning sevimli turmush o`rtog`i Jiazhen ham o`zining fidoiyligi sabr-toqatligi bilan ajralib turadi. Jiazhen orqali turmush o`rtog`iga har qanday vaziyatda, uni hatto tashlab ketganda ham unga tirgak, tayanch bo`lib, oilaning birdamligi, mustahkamligini saqlab qolishga harakat qilishini ko`rishimiz mumkin. Bu asar orqali o`z navbatida Xitoyning “Ma`daniy inqilob”, urushlar, ochlik yillari millionlab insonlar taqdirini o`zgartirgan. Yu Hua esa siyosiy masalalar, mafkuraviy hayqiriqlari soyasida ezilgan oddiy xaqlni taqdirini ochib bergan. U tarixni faqat eslatmaydi-uni yurakda his etishga, og`riq bilan kechishga majbur qiladi. Bugun biz zamonaviy hayotda yashar ekanmiz turli xil katta-kichik muomolarga duch kelamiz. Natijada ruhiy tushkunlikka tushamiz. Ammo Fugui singari sabr-toqatli inson bo`la olmaymiz. Fugui har safar yiqilganda, hayot uni yana tiklanishga undaydi. U hatto oxir-oqibat yolg`iz qolganida ham-yashashdan voj kechmaydi. Bu iroda biz uchun o`rnak bo`lishi kerak. Insoning asl kuchi -u qachonki umidni yo`qotmasa, shunda yashaydi. Ba`zi bir insonlarning qo`lida ishi



yo`q,ba`zilarining yuragida farzand sog`inchi bo`lsa boshqalarning sog`lig`ida kamchilligi bor.Biroq Yu Huaning “Yashamoq” asari orqali biz hayot har doim ne`mat emasligini,ba`zida u sinovlar zanjiridan iborat ekanligini unutmasligimiz lozim.Ammo shu sinovlar Ichida ham inson yashashga intilishi,kurashdan voj kechmasligi lozim.chunki yashash- kurash,iroda,bardoshlilikdir.Yashash-bu mavjud bo`lish emas,balki borliq og`irligini yelkasida ko`tarib yurishdir.Yashash-har bir yo`qotishdan so`ng o`zini tiklash,har bir qorong`ulik ichidan yorug`likni izlash.Hayotdagi eng katta jasorat-bu faqat yashash emas,balki o`zingizni har bir sinovda saqlay olishdir.Fugui yashashni davom ettirish orqali bizga shuni o`rgatadi: “ Har bir narsani yo`qotish mumkin,lekin hayotni hech qachon tark etishimiz kerak emas”.Biz uchun eng katta sinovlar nafaqat yo`qotishlar,balki hayotni davom ettirishning o`zi,unda qolishdir.Fugui hayotga qarshi kurashishda hech qanday g`alaba kutmaydi,ammo uning harakatlari o`zi- eng katta muvffaqiyatdir. Bu oddiy odamning-hayotini davom ettirishga qodir bo`lgan jahonni o`zgartiradigan jasorati haqidagi asardir.